

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

IJTIMOY FANLAR KAFEDRASI



IBTIOIY JAMOA TUZUMI VA ILK DAVLATCHILIK DAVRI TARIXIDA  
FARMATSEVTIKA

Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari 1 bosqich talabalari uchun

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT - 2023

**Tuzuvchi:**

Iskandarov Sh.A. - Toshkent tibbiyot akademiyasi “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

**Taqrizchilar:**


Niyozova N.Sh. Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi falsafa fanlari nomzod, dosenti

Narziyev N.N. O‘zMU “Antropologiya va Etnologiya” kafedrasi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent,

O‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan.

“\_21\_” dekabr 2022 yil

\_5\_-son majlis bayonnomasi

OTM kengash kotibi t.f.d., professor  Ismailova G.A.

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH.....</b>	<b>4-5</b>
<b>1. Ibtioiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik davri tarixida farmatsevtika.....</b>	<b>6-17</b>
<b>2. Test.....</b>	<b>18-21</b>
<b>3. Nazarot savollar.....</b>	<b>22</b>
<b>4. Slayd.....</b>	<b>23-31</b>

## KIRISH

Qadimgi davrdan hozirga qadar rivojlanib kelayotgan farmatsiya tarixi bilan tanishtirish, qaratilgan. Shuningdek, biologik faol moddalar hamda dori turlari tayyorlash manbai sifatida dorivor o'simliklarni o'rganish. Kimyoviy tarkibi tekshiriladi hamda asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalar, muhim dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, hamda xalq orasida va an'anaviy tabobatda ishlatiladigan dorivor o'simliklarni hamda tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning boshqa turlarini o'rganish hisoblanadi.

Tibbiyat va sog'liqni saqlash sohasining yutuqlari va istiqbollarini ob'ektiv tahlil qilishga o'rgatish; tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash; insoniyatning rivojlanishi tarixidagi buyuk sivilizatsiyalarning tibbiyat sohasidagi kashfiyotlarining ahamiyatini ochib berish; buyuk allomalar, dunyoning taniqli olimlari va shifokorlari hayoti va faoliyati bilan tanishtirish; dorilar tayyorlash va dorivor O'zbekiston hududida tibbiyotning o'ziga xos bo'lgan rivojlanish tarixini asoslash; tibbiyat etikasi tamoyillarini singdirish; yuqori axloqiy fazilatlar: o'z kasbiga muhabbat, burchga sadoqat, Yangi dorilarni tuzilishi va tarkibini o'rganish, Turli shaklda ishlab chiqarish va aholiga (dorixonalarga) yetkazish.

"Farmatsiya tarixi" moduli talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirib borish vazifalarini bajaradi.

Talabalar Vatan tarixining ushbu davrga qadar bosib o'tilgan o'tmish shundan dalolat beradiki, istiqlol uchun kurash hamma vaqt O'zbekistonda bir-biridan mustaqil ikki yo'nalishda olib borilgan. Birinchisi. diniy-islomiy yo'nalishda bo'lsa, ikkinchisi umumma'rifiy-siyosiy va demokratik yo'nalishdadir. Bu har ikkala yo'nalishning umummushtarak maqsad yo'lida mustaqillik uchun kurashda birlashib harakat qilmaganligi, ko'p hollarda esa ikkinchi darajali muammo va masalalar atrofida kelisholmasdan biri-birini inkor etib kelganligi har ikkala yo'nalishning ham zaif tomonlaridan bo'lib, undan mustamlakachi kuchlar ustalik

bilan foydalanganlar. 80-yillarda ham bu jaravonda aytarlik o‘zgarishlar bo‘lgan emas.

Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkiliy-huquqiy hujjatlarini va ular asosida ishlab chiqiladigan lokal hujjatlarni har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o’rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

## **MAVZU: IBTIOIY JAMOA TUZUMI VA ILK DAVLATCHILIK**

### **DAVRI TARIXIDA FARMATSEVTIKA**

#### **Reja:**

1. Farmatsiya tarixining fan sifatida shakllanishi
2. Insoniyat jamiyatida Farmatsiya ning kelib chiqishi
3. Avestoda tibbiyot

Farmatsiya modul sifatida tibbiy bilim va tibbiy amaliyotda tutgan o‘rni. Farmatsiya vazifalari. Farmatsiya moduli o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyati.

Farmatsiya jamiyat rivojlanishi tarixi va madaniyati bilan bog‘liqligi. Dunyo tarixining davriyligi va xronologiyasi. Farmatsiya tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning ahamiyati. Tibbiyot sohasiga oid ilk yozma manbalar.

Bo‘lajak shifokorlar uchun Farmatsiya tarixini o‘rganish muhimdir. Farmatsiya fani tibbiyotning rivojlanish yo‘llarini chuqr o‘rganishda, uning erishgan yutuqlarini to‘g‘ri anglashda talabalarga dastur bo‘lib xizmat qiladi, ularning bilim darajasi va saviyasini oshiradi. Umuman, Farmatsiya fani talabalarning ma’naviy - g‘oyaviy va madaniy jihatdan yuksak darajadagi mutaxassislar bo‘lib yetishishlarida katta o‘rin egallaydi.

Tibbiyotning rivojlanishida tabiiy fanlar ham muhim rol o‘ynaydi. Tabiiy fanlarning har biri tibbiyotni boyitib, rivojlantirib boradi. Tibbiyotning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy hayotning deyarli barcha sohalari rivojlanishi bilan bog‘liq. Farmatsiya tarixini ijtimoiy hayotning barcha sohalari rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda o‘rgangan holda, uning bosib o‘tgan barcha bosqichlari bilan tanishiladi. Farmatsiya umumiy va xususiy qismlarga bo‘linadi. Umumiy Farmatsiya tibbiyotni bir butun to‘laligicha o‘rganadi, uning taraqqiyot qonunlarini kashf etadi, tibbiyotning insoniylik jamiyatni rivojlanishining har bir davridagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Xususiy Farmatsiya tibbiyotning ayrim sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganadi, ayrim yirik tibbiyot olimlarining hayoti va ijodi bilan tanishadi.

Umumiy va xususiy Farmatsiya bir – biri bilan bog‘liqdir, ular o‘zaro birlashib, tibbiy – tarixiy fanni tashkil etadi. Umumiy Farmatsiya mustaqil fan sifatida o‘kitilsa, xususiy Farmatsiya har bir tibbiy fanning kirish qismida bayon etiladi.

### **Arxeologiya fani qator tarmoqlarga bo‘linadi:**

- 1) Antropolgiya – bu fan qadimgi insonlarning gavda tuzilishi, uning biologik xususiyatlari, yashash sharoitlarini o‘rganadi.
- 2) Paleopatologiya – bu fan qadimgi insonlarning suyaklarini tekshirib, ularning qanday kasalliklar bilan og‘riganliklarini aniqlaydi. Bunda rentgenologik va radiologik usullardan foydalilaniladi.
- 3) Paleobiologiya – bu fan qadimgi zamon insonlarining suyaklarini radiobiologik va immunologik usullar bilan tekshirib, ular organizmidagi biologik xususiyatlarni aniqlaydi.

Qo‘lyozma asarlar juda qadimgi zamonalardan yaratila boshlangan. Ularga qadimgi Misr papiruslari, Assuriya va Vaviloniya shohlarining toshga o‘yib yozilgan qonunlari, qoyalarga yozilgan xatlar va suratlar, teriga va qog‘ozga yozilgan xatlar kiradi.

Bosma asarlar bosma dastgohlari kashf etilgandan so‘ng (XV asr) paydo bo‘lgan. Farmatsiya tarixini o‘rganishda xalq tibbiyoti, xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot, amaliy san’at asarlari, xalq eposlari singari ko‘sishimcha manbalardan ham foydalanish mumkin.

Og‘zaki badiy adabiyotda ham tibbiyotiga oid ba’zi ma’lumotlar topiladi. Ularda jarohatlangan sipoh tanasidan o‘qni chiqarib olish, jarohatlarni bog‘lash, tikish kabi muolajalar ko‘rsatiladi. Xalq tabobati ham Farmatsiya tarixini o‘rganishda yordam beradi. Xalq tabobatida qadim zamonalardan ishlatilib kelgan dori darmonlar va muolaja usullarini o‘rganish orqali o‘sha vaqtidagi tibbiyotning rivojlanish darajasi sohasida ma’lum tushunchaga ega bo‘lish mumkin. Masalan, O‘rta Osiyo xalq tibbiyotida ibridoiy jamoa davridan boshlab har xil shifobaxsh

o'simliklar ba'zi mineral moddalar va hayvon mahsulotlari ishlatilgani ma'lum. Chunonchi, tananing yallig'langan joyiga qo'yning dumba yog'ini bir oz qizitib, bog'lab qo'yganlar. Bunda chipqon tezroq "pishgan" va o'zi yorilib, ichidagi yiring chiqib ketgan.

O'sha davrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan muolija usullaridan biri — shomonlik bo'lgan. Shomonlik ibtidoiy davrlardan boshlanadi. Biz ko'rsatib o'tganimizdek, u davrda odamlar kasallik odam organizmiga har xil johil kuchlar kirib qolishidan paydo bo'ladi, deb o'ylaganlar. Shomonning davolash usuli uzoq vaqt dovomida shovqin suron beruvchi asbob chalib, to'xtovsiz turli harakatlar qilish yo'li bilan bemor tanasiga kirib qolgan "johil kasal"ni haydab chiqarishni ko'zda tutadi. Xalq tibbiyoti sifatida bizgacha yetib kelgan bu ma'lumotlar ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham, o'sha zamondagi tibbiyat haqida albatta, yetarli tushuncha bermaydi. Bu haqda bizga to'liqroq ma'lumot beruvchi yozma manba biz yuqorida aytib o'tilgan Avesto nomli kitobdir. Bu kitobda qadimgi Eron, Ozarbajon va O'rta Osiyo xalqlarining hayoti, tumish tarzi, urf odatlari va diniy e'tiqodlari bayon etilgan. Avesto milloddan oldingi IX asrda yozilgan, deb faraz qilinadi. Abu Rayxon Beruniy "qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida kitobning muallifini zardushtiylar dinining asoschisi — Zardusht ibn Safid Tumon deb ataydi. Avesto zardushtiylar dinining aqidalari va qonun qoidalardan iborat. Avvalo unda tabiblik alohida kasb ekanligi e'tirof etiladi va tabibning mehnatiga haq to'lash zarurligi ko'rsatiladi. Bu haqda "Avesto"da bunday deb yozilgan:

Kitobda "koxinlarga ibodat qilganlari, tabiblarga muolaja qilganlari uchun haq to'lashlari zarur". Avesto dastlab 21 qismdan iborat bo'lgan. Uning dastlabki 7 qismi dunyoning kelib chiqishi va odamlar avlodining tarixiga bag'ishlangan, ikkinchi 7 qismida ahloq, kishilarning diniy aqidalarga bo'ysunishlari va hayotiy qonun qoidalari bayon etilgan. Oxirgi 7 chi qismida esa tibbiyat va falakkiyot masalalari yoritilgan. So'ng Avesto vaqt o'tishi bilan ko'p o'zgarishlarga uchrab oxiri 3 kitobdan iborat bo'lib qolgan.

Birinchi kitob "Vendidat" deb atalgan. Bu kitobda jismoniy va ruxiy tozalanish qoidalari bayon etilgan.

Ikkinci kitob "Visperet" deb atalib, bilish ma'nosini bildiradi.

Uchinchi kitob "Yasna" deb atalgan. Bunda zardushtizimning qonun va qoidalari bayon etilgan.

Biz uchun Avastoning "Vendidat" nomli kitobi muhimdir. Bu kitobda o'sha zamonda zardushtiylar dini mazhabida turuvchi xalqlarning tibbiyoti haqida ma'lumotlar bor.

"Vandidat" 22 qismdan iborat. Shu qismlardan 8 tasida tibbiy masalalar bayon etilgan. Oxirgi 3 qismi aynan tibbiyotning o'zi haqida.

Avestoda birinchi galda jismoniy va ruhiy ozodalik masalasi haqida so'z boradi. Har xil zararlangan narsalardan uzoq bo'lishi kerakligi tavsiya etiladi. Eng kuchli zararlangan narsa deb, o'lgan odamning tanasi ko'rsatilgan. Shuning uchun o'lgan kishi tanasiga yaqinlashmaslik tavsiya etilgan. Aftidan, o'sha zamonda ham murda zahari haqida tushuncha bo'lgan.

Zardushtylarning bu kitobi o'lgan kishining jasadini yerga kumishni man etadi. Uni yondirish va suvga cho'ktirish ham mumkin emas, chunki zardushtizm suv, yer, va havoni muqaddas deb e'lon qilgan. Murda tanasi esa zararlangan bo'lgani uchun ularni ifloslantiradi deb tushunganlar. Shuning uchun o'lgan kishining tanasini aholi yashaydigan joydan uzoqqa, tepalik joyga olib borib ochiq qoldirganlar. Qushlar va hayvonlar murdaning yumshoq qismlarini yeb bo'lganidan keyin suyaklarni yig'ib, maxsus suyakdonlarga solib qo'yganlar. Bu osoriylar uydagi maxsus tokchalarda saqlagan. Bunda ossuriylar O'rta Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududida ko'p topilgan.

Avestoda yozilishicha, tibbiyotning kashfiyotchisi, va birinchi tabib — Trita bo'lgan. U haqida quyidagi rivoyat mavjud: Trita birinchi bo'lib kishilarni kasalliklardan va o'limdan holi qila boshlagan. Axuramazda unga osmondan dori yuborgan. Trita shu dorilarni ishlatib kishilarni har xil kasalliklardan tuzatgan. Bu dorilarning ichida eng yaxshisi xaoma bo'lgan. Bu dori "salomatlik va hayot manbai" deb atalgan.

Pavastoni yaratgan payg'ambar deb ataluvchi Zardo'shtrani fikricha, shu "sog'liq va hayot manbai" xaomani Trita kashf etgan. Demak, u birinchi tabibdir.

Avestoda ikkinchi tabibning nomi ham keltiriladi. U Yima deb atalgan. Bu tabib haqida quyidagi rivoyat bor: "Yima odamlarni har xil qurol-yaroq, kema yasashga, mato to'qishga, tegirmon qurishga o'rgatdi. U birinchi bo'lib kishilarni tabiblik san'atiga o'rgatdi.

Avastoda odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida ham ba'zi ma'lumotlar berilgan. Unda odam organizmi 8 qismdan iborat bo'ladi, deb ko'rsatilgan. Tomirlar haqida bunday deyilgan: 2 xil, ya'ni qizil qon oquvchi, qora qon oquvchi tomirlar bo'ladi. Bundan tashqari oq qon oquvchi yoki qon oqmaydigan 3 xil tomirlar ham bo'ladi. Bu yerda nerv tomirlari ko'zda tutilgan bo'lsa kerak. Chunki "barcha hayot shu 3 xil tomirga bog'liqdir", — deb yozilgan. Aytlishicha, qon yurakda, o't-jigarda, urug' orqa miya kanalida ishlab chiqiladi. Sezish a'zolari haqida to'g'ri fikr aytilgan. Sezish, eshtish, ko'rish, tam bilish markazlari bosh miyada joylashgan, deyilgan.

Avestoda hayotiy jarayonlar haqida qiziq fikr aytilgan. Hayot — issiqlikni boshqarish jarayonidan iborat o'lim esa issiqlik muvozanati buzilishi natijasida organizmning yonib tugashidir.

Kasallik va uning sabablari Avestoda diniy tushunchaga asoslangan. Kasallikni johil xudo Axriman yuboradi deb faraz qilingan. Kasallik alomatlari johil Axriman yuborgan ruh kirishi bilan ko'rindi, degan fikr aytilgan. Amaliy tibbiyotda kasallikni kelib chiqishiga yel sabab bo'ladi deb ko'rsatilgan. Sovuq yel tanani sovitadi, issiq yel qizdiradi. Issiq yelda Axrimaning ko'zga ko'rinas mayda zarrachalari bo'ladi deb faraz qilganlar. Bulardan ko'rindiki Avastoda tibbiyot haqida to'g'ri fikrlar bilan bir qatorda haqiqatdan uzoq fantastik tushunchalar ham mavjud bo'lgan.

Amaliy tibbiyotda kasallikning sabablaridan biri, ovqat rejimining buzilishi deb ko'rsatilgan.

Kitobda yozilishicha, kasallikdan qutilish uchun faqat ormuzdag'i "yaxshilik xudosiga murojat qilish kerak. Ammo, amaliy jihatdan 3 xil davolash usuli ko'rsatilgan. Bulardan: 1) pichoq bilan davolash, ya'ni jarrohlik, 2) o'simlik bilan

davolash, 3) so‘z bilan davolash. Bu yerda pichoq bilan davolash, ya’ni jarrohlik birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Demak mohir jarrohlar bo‘lgan.

O‘simliklar ya’ni shifobaxsh o‘tlar bilan davolashga kelsak, O‘rta Osiyo yerlari bunday o‘simliklarga juda boy bo‘lgan. Qadimgi zamon tabiblari ulardan keng foydalanganlar. "Avestoda" foydali va zararli o‘simliklar borligi ko‘rsatib o‘tilgan. Avestoda so‘z bilan davolashga alohida e’tibor berilgan. Kitobda yozilishicha, eng ta’sirli davo usuli diniy urf-odatlarni amalga oshirishdir. Hozirgi vaqt nuqtai nazaridan qaralsa, bu usul psixoterapiya prinsipiga asoslanadi.

Salomatlikni saqlash uchun "Avesto" bir qancha tadbirlarni tavsiya etadi. Shulardan birinchisi buzilib, chirib borayotgan uzoqda bo‘lish. Ayniqsa murda tanasiga yaqinlashmaslik zarur. Kitobda umumiy xigiena, mamlakat obodonchiligi, aholini toza suv bilan ta’minlash oziq ovqatni mo‘l qilish uy va bog‘larga meva daraxtlar ekish, dehqonchilikni rivojlantirishga e’tibor berish zarurligini ko‘rsatiladi. Avestoda yozilishicha odam organizmidan ajralib chiquvchi barcha chiqindilar zararli bo‘ladi. Shuning uchun ulardan uzoqroq yurish kerak. Avestoda bayon etilgan zardushti dinida tabiatda va hayotda doim ikki qarama va qarshi kuch bir biri bilan ko‘rash olib boradi deyilgan.

Shu davrdagi Eron tabiblari orasida kahhollar, jarrohlar, tish tabiblari, tanosil, ruxiy va xatto ayollar kasalliklarini davolovchilar bo‘lgan. Jarrohlar oldiga qattiq talab qo‘yilgan. Ular kasallarni jarrohlik yo‘li bilan davolashga kirishishdan oldin o‘z bilim va tajribalarini isbot etishi kerak bo‘lgan. Buning uchun ular kamida. 3 ta jarrohlik operatsiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazishlari lozim edi. Eron tabiblari operatsiya vaqtida og‘riqsizlantirish uchun bemorga narkotik moddalar bergenlar.

Qadimgi Eron tabiblar kasallikni aniqlashda ancha tajribali bo‘lganlar. Ular isitmali kasalliklar, xususan, bezgak, bavosil, chechak, trofik yaralar, dizintiriya, har xil yallig‘lanish, parazit va ko‘pgina teri kasalliklarini yaxshi bilganlar, ularga to‘g‘ri tashxis qo‘yganlar va ularni muvaffaqiyatli davolaganlar.

Eron tabiblari ishlatajigan dorilarning xili ko‘p edi. Ular ichida o‘simlik va mineral moddalar, hayvonlardan olinadigan dorilar va h.k. bo‘lgan. Masalan, ular oz

miqdorda ilon zaharini berib, kishi organizmini zaharga qarshi turish kuchini oshirganlar. Bu hozirgi tilda immunitet deyiladi.

Tabiblar ba’zi bir kasalliklarini ham bilganlar. Masalan, ularga mo‘ynachilar, temirchilar, teri bilan ishlovchilarda uchraydigan kasalliklar ma’lum bo‘lgan. Ular yuqumli kasalliklar mavjudligini ham bilganlar va ularga qarshi ba’zi choralarни ishlab chiqqanlar. Yuqumli kasallik paydo xonadonni va bemor buyumlarini dudlatganlar.

Qadimgi O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan xalqlar tibbiyoti ham boshqa Sharq mamlakatlar tibbiyotiga o‘xhash bo‘lgan. Ayniqsa, Eron tibbiyoti bilan O‘rta Osiyo tibbiyoti o‘rtasida umumiylig sezilarlidir.

### **Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi**

Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi haqida 2 xil nazariya mavjud:

1. Diniy –mistik nazariya.
2. Ilmiy materialistik nazariya.

*Diniy – mistik nazariya* tarafdarlarining fikricha, tibbiyot dastlab ibodatxonalarda paydo bo‘lgan. Davolash ishlari bilan bиринчи bo‘lib kohinlar (ruhoniylar) va rohiblar (monaxlar) shug‘ullanganlar. Ular insonning har xil kasalliklardan azob chekayotganini ko‘rib, ularga rahmlari kelgan va rahm–shavkat yuzasidan bemorlarni davolay boshlaganlar. Ammo bu nazariya unchalik to‘g‘ri emas, chunki tibbiyot insoniyat tarixida din kelib chiqishidan ancha oldin mavjud bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa davrida yashagan odamsimon mahluqlar turli kasalliklar bilan kasallanganlar va o‘ziga xos usullar bilan davolanganlar. U davrda esa hali hech qanday din va kohinlar yo‘q edi. Binobarin, tibbiyotning kelib chiqishi dinga bog‘liq bo‘lmagan, u dindan oldin paydo bo‘lgan.

*Ilmiy materialistik nazariyaga* asosan tibbiyot insoniyat jamiyatni rivojlanashining dastlabki bosqichida zarurat tufayli, yashash uchun ko‘rash jarayonida kelib chiqqan. Mazkur nazariya ko‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib ilmiy asoslangan nazariya hisoblanadi. Masalan, difteriya kasalligining ko‘zg‘atuvchisi difteriya tayoqchalari, dizenteriya ko‘zg‘atuvchilari shigella yoki fleksnerlardir.

*Pitekantroplar* birinchi bo‘lib qurolga ishlov bera boshlaganlar. Masalan, toshning bir chekkasini urib tushirib, undan kesish quroli sifatida foydalanganlar. Bunda yiringlagan joylarni kesish, kindik kesish kabi muolajalardan keng foydalaniłgan. Shunday qilib, pitekantroplardan boshlab aktiv davolash usuli amalga oshirila boshlangan. Ular shifobaxsh o‘simliklarni qidirib topib, ishlatganlar. Bu bilan insonlar tibbiyotiga birinchi qadam qo‘yilgan.

Taraqqiyotning bundan keyingi bosqichi *sinantroplar* davridir. Ular odamlarga yanada yaqindirlar. Sinantroplar qurol yasashda pitekantroplardan ustun turganlar. Masalan, ular tosh va suyakdan o‘tkir qurollar yasay olganlar. Bu asboblaridan tibbiy muolajalarda foydalanganlar. Masalan, yiringlagan joylarni kesish, jarohatlarni bog‘lashda shifobaxsh o‘simliklarning yaproqlarini ishlatishgan.

Ularning muolajalari usuliga kelsak, bu masalaga oid materiallar hozircha kam uchraydi.

*Neandertal* odamning muhim xususiyati shundan iboratki, ularda so‘zlash qobiliyati paydo bo‘lgan. Bu esa tibbiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, bemor o‘z kasalligi haqida ma’lumot berish, nima bezovta qilayotganini aytib bera olish imqoniyatiga ega bo‘lgan va shunga binoan davo choralari ko‘rilgan.

*Mezantroplarning* eng katta kashfiyoti kamon o‘qi bo‘lgan. Bu qurol bilan har qanday hayvonni uzoqdan turib otib o‘ldirish imqoniyatiga ega bo‘lganlar. Ular shu yo‘l bilan hayvonlar go‘shtini yeb, moy, sut, jigari, terisini esa davolash maqsadida ishlatganlar.

Antropoidlarning odam tomon rivojlanishidagi oxirgi bosqichi – *neantroplar* davridir. Bular neolit, ya’ni tosh davrida yashaganlar. Neantroplar tashqi ko‘rinishda insonning hamma belgilariga ega bo‘lganlar. O‘zlari uchun kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmasdan oldinroq ba’zi muolaja usullarini o‘rganib olganlar.

Ibtidoiy jamoa davrida yashagan odamlar ham o‘simliklardan olinadigan moddalarning xususiyatini yaxshi bilganlar. Ibtidoiy jamoa davrinig oxiriga kelib, tibbiyot odamlarning zaruriy faoliyatlaridan biriga aylandi. Bu ish bilan shug‘ullanuvchi kishilar uni o‘zlari kasb qilib olganlar. Shunday qilib, tibbiyot kishi faoliyatining alohida sohasiga aylanadi va tibbiyot kasbi kelib chiqadi. Tibbiyot

kasbining kelib chiqishi mehnat taqsimotining natijasi edi. Binobarin, o'sha zamondayoq kishilar o'rtasida mehnat taqsimoti vujudga kelgan edi. Dastlabki davrda mehnat taqsimoti oddiy bo'lgan. Masalan, erkaklar bilan ayollar o'rtasida, kattalar bilan bolalar o'rtasida, qariyalar bilan yoshlari o'rtasida mehnat taqsimoti bo'lgan. Ayollar ko'proq o'z o'choqlari yonida qolib, kundalik zaruriy ishlar bilan shug'ullanganlar, bolalarni boqganlar. Bolalar onalari va kattalarga yordam berishgan. Dastlab tabiblik bilan **sartaroshlar shug'ullanganlar**. Ular og'rigan tishlarni sug'urib olish, xatna qilish, zuluk solish kabi muolajalarni amalga oshirishgan. Shu tarzda tabiblik kasb sifatini oladi. Tabiblik ham boshqa kasblar kabi oilaviy xususiyatga ega bo'lgan. Bu kasb avloddan – avlodga o'tib boradi. Har bir tabib o'z davolash usullari va o'zi ishlatadigan dorilariga ega bo'lishga harakat qilgan. Bu usul va dorilar boshqalardan sir saqlangan. Tabiblar kasalliklarni to'g'ri harakat va muvaffaqiyatli davolash yo'llarini axtarganlar va undan kelib chiqib, tashxis (diagnoz), davolash usullarini takomillashtirib borganlar. Tabiblar kasalliklarning sabablari bilan ham qiziqa boshlashgan. Bu haqida ma'lum fikrlar paydo bo'lgan.

Kishilar kasallik qanday va qaerdan keldi, degan savol bilan shug'ullanmaganlar. Ular bemor qanday qilib kasal bo'lib qoldi, deb surishtirib o'tirmay davolaver ganlar. Masalan, bemorning ichi ketayotgan bo'lsa, sababini surishtirmay, ich to'xtatuvchi dori berar edilar, xolos. Kishilarda abstrakt fikrlash qobiliyati paydo bo'lgandan keyin ular tabiatdagi hodisalarga qiziqa boshlashgan. Bu hodisalarning mohiyati va sababini bilishga intilganlar. Ammo tabiiyki, u vaqtlardagi odamlarning aql – idrok darajasi bu hodisalarnig anglashga ojiz edi. Kishilar tabiatdagi vahimali hodisalar (chaqmoq, momaqaldiroq, yer qimirlash, sel yog'ishi va suv toshqini) ta'sirida edilar. Ular asosan, yer olov, quyosh va boshqalarga sig'inishgan va ulardan shifo topish uchun madad so'raganlar.

Ma'lumki, ibridoiy jamoa davrining oxiriga kelib, din paydo bo'ladi va barcha hodisalar dinga bog'lana boshlaydi. Din tibbiyat sohasiga ham yoyiladi. Hamma narsa, jumladan, kasallik ham xudodan, deb faraz qila boshlaydilar. Shunga ko'ra davolanishda xudo va payg'ambarlarga sajda qila boshlaydilar, har xil diniy

marosimlarni o‘tkazadigan bo‘ladilar. Ammo amaliy tibbiyotda hayot tajribasiga asoslangan to‘g‘ri fikrlar ham shakllanadi. Tabiblar og‘ir jismoniy va ruhiy hayot kechirayotgan moddiy jihatdan ta’minlanmagan va og‘ir mehnat sharoitida ishlovchi kishilarda har xil kasalliklar ko‘p uchrashini ko‘zdan kechirib, shu omillar kasallikni keltirib chiqarar ekan, degan to‘g‘ri xulosa chiqarganlar. Bu masalada avvalo ovqatlanishga katta e’tibor bergenlar. Sifatsiz ovqat iste’mol qilish, to‘yib ovqat yemaslik yoki aksincha batxo‘rlik kasallik keltirib chiqarishini, iqlim, ob-havo va boshqa tabiiy omillar ham odamga ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkinligini aniqladilar. Ammo kasallik paydo bo‘lishida ilohiy kuchlar ishtirok etishi haqidagi tushuncha ham saqlanib koladi. Shu tushunchaga muvofiq davo choralar ham ishlab chiqiladi.

Amaliy tibbiyotda esa davo sifatida ishlatiladigan dori-darmonlar soni ancha ko‘payadi, ular bir necha yuzga yetadi. O‘simpliklar qatoriga mineral moddalar ham qo‘shiladi. Shu asosida tibbiyot boshqa kasblarga nisbatan ancha tez rivojiana boshlaydi. Chunki tibbiyotda muhtojlik katta bo‘lgan. Tabiblarning o‘zi ham bemorlarni davolashdan manfaatdor bo‘lganliklari uchun bu kasbni kengroq rivojlantiradilar.

Farmatsiya faniga umumiy tavsiyanoma beriladi. Farmatsiya fani 2 qismga umumiy va xususiy Farmatsiya bo‘lib o‘rganilishi. Mazkur fanni rivojlanishida biologiya, fizika, mikrobiologiya kabi fanlarni o‘rni katta ekanligi, Farmatsiya fan sifatida shakllanishida insoniyat ongingin, aql-idrokining oshirilishi maqsad va usullarini qo’llanilishi muhim rol o‘ynagan. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi odamlar toshga ishlov berish natijasida teshuvchi, kesuvchi pichoqlar yaratib yiringli joylari yorib yiringini chiqarish, chaqaloq kidnagini kesishda ishlatishgan. Diniy mistik nazariya bu tibbiyotni din bilan bog‘lab o‘rgangan (Anemizm, fteshizm, titemizm) mazkur tushunchalar o‘sha davr odamlari uchun katta rol o‘ynagan.

Ilmiy materialistik nazariya esa tibbiyotni ilmiy jihatdan asoslab berish masalan: difteriya, dizenteriya, sil, gepatit va boshqa kasalliklarni mikrob va viruslar chaqirishini ilmiy jihatdan isbotlanishi tushuniladi. Insoniyat birinchi tibbiy

muolajalarni hayvonlarni hayotini kuzatish yo‘li bilan o‘rgangan masalan klizmani qushlardan, mumiyoni topish va davolashni kiyikdan va h.k. Tibbiyotni kasb sifatida shakllanishida ibtidoiy jamoa tuzimi oxiri quldorlik davri boshlarida alohida tibbiyot bilan shug‘ullanuvchi odamlar paydo bo‘la boshlangan ular singan va chiqqan suyaklarni davolash, turli dorivor o‘simliklar bilan davolash bilan shug‘ullanishgan.

Tibbiy bilimlar qatorida Farmatsiya fani alohida o‘rin egallaydi. U tibbiyotning tarixiy rivojlanish yo‘llari va uning hozirgi kungacha yetgan darjasи haqida umumlashtiruvchi tushuncha beradi, tibbiyotning taraqqiyot qonunlarini ochadi va shunga asosan uning kelgusidagi yo‘nalish yo‘llarini ko‘rsatib beradi. Farmatsiya umuminsoniyat tarixining muhim qismidir.

Bo‘lajak shifokor uchun Farmatsiya tarixini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Farmatsiya fani tibbiyotning rivojlanish yo‘llarini chuqur o‘rganishda, uning erishgan yutuqlarini to‘g‘ri anglashda talabalarga dastur bo‘lib xizmat qiladi, ularning bilim darjasи va saviyasini oshiradi. Umuman, Farmatsiya fani talabalarning kasbiy-estetik, ma’naviy-g‘oyaviy va madaniy jihatdan yuksak darajadagi mutaxassislar bo‘lib yetishishlarida katta rol o‘ynaydi.

Farmatsiya tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida yashagan kishilarning hayoti juda past darajada rivojlangan edi. Ular yashash uchun hech narsa ishlab chiqarmay, faqat tabiatdagi mavjud mahsulotlar (o‘simliklar, ularning mevalari, ildizlari va h. k.) ni yeb yashaganlar. Shuningdek, ular tibbiyot sohasida ham hech narsa kashf etmay, tabiatda mavjud bo‘lgan shifobaxsh o‘simliklarni shundayligicha yeb davolanganlar. Binobarin, bu davrda tibbiyot ham juda past darajada bulgan. Undan keyingi ijtimoiy hayotni o‘zgarishi bilan tibbiyot ham rivojlna borgan. Bu o‘zining ilg‘or nazariy asoslari va yuksak prnnsiplari bilan undan oldin o‘tgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlardan tubdan farq qiladi.

Tibbiyotning rivojlanishi boshqa ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog‘liq. Masalan, tibbiyotning rivojlanishida farmasiya tarix fani ham muhim o‘rin egallaydi. Tibbiyot faqat ilg‘or materialistik farmasiya tarix asosidagina rivojlanishi

va yutuqlarga erishishi mumkin. Masalan, O'rta asrlarda Ovrupoda idealistik farmasiya tarix va sxolastika hukmron bo'lgan. Shunga ko'ra, o'sha vaqtdagi tibbiyot ham sxolastik xarakterga ega bo'lgan. hozirgi zamonamizda fanda materialistik tushuncha hukmron. Shuning uchun hozirgi zamon tibbiyoti yuksak materialistik fan asosida yuqori darajada rivojlangan.

Tibbiyotning rivojlanishida tabiiy fanlar ham muxim rol o'ynaydi. Tabiiy fanlarning har biri tibbiyotni boyitib, rivojlantirib boradi. Masalan, kimyo, botanika fanlarining rivojlanishi dori-darmonlarning ko'payishiga hissa qo'shdi. Biologiya, parazitologiya, mikrobiologiya fanlarining rivojlanishi tufayli ko'pgina kasalliklarning sababchilari (mikroblar, parazitlar) aniqlandn. Fizika fanining rivojlanishi natijasida yangi-yangi tashxis (diagnostika) va davolash usullari (mikroskop usuli bilan tekshirish, rentgen-radiy nurlaridan foydalanish, elektrokardiografiya va h. k.) ishlab chiqildi. Shu misollardan ko'rinish turibdiki, tibbiyotning rivojlanishi xaqiqatan ham ijtimoiy va madaniy hayotning deyarli barcha sohalari rivojlanishi bilan bog'liq. Binobarin, biz Farmatsiya tarixini ijtimoiy hayotning hamma sohalari rivojlanishi bilan bog'liq; holda o'rganamiz. Bunda tibbiyotning kelib chiqishidan boshlab, uning bosib o'tgan barcha bosqichlari bilan tanishamiz.

Farmatsiya umumiy va xususiy qismlarga bo'linadi. Umumiyl Farmatsiya tibbiyotning paydo bo'lishidan hozirgi kungacha rivojlanishini umumiy o'rganadi, uning taraqqiyot qonuniyatlarini kashf etadi, tibbiyotning kishilik jamiyatni rivojlanishining har bir davridagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

## **Testlar**

1. Ilk odamlarning iloxiy kuchlar-ruxga ishonch, ruxlar va umumborliq ruxlarga ishonchini akslantiruvchi atama?
  - A. anamizm
  - B. totemizm
  - C. fetishizm
  - D. shamanizm

**ANSWER: A**

Farmatsiya tarixini umumiyl bo‘limi nimani o‘rganadi?

1. vrachlikni va meditsinani rivojlanish qonuniyatlarini
2. aloxida meditsina bo‘limlarini tarixiy rivojlanishi va yutuqlarini
3. meditsina fanini va amaliyotini shakillanishida an’anaviy omillarni
4. qadimiy meditsinani rivojlanishini

**ANSWER: A**

Qadimgi odamlarga ma’lum bo‘lgan operativ davo usullari?

- A. bug‘li xammom, massaj, ichakni yuvish, sovuq va issiq kompresslar, qon chiqarish, trepanatsiya qilish.
- B. bosh suyagi trepanatsiyasi, shinalar qo‘yish, choclar qo‘yish, qon chiqarish, og‘riq qoldirish uchun tabiy vositalardan foydalanish
- C. bosh suyagi trepanatsiyasi, shinalar qo‘yish, choclar qo‘yish, qon chiqarish, og‘riq qoldirish uchun tabiy vositalardan foydalanish
- D. rituallar, amuletlar,nordon va yoqimsiz narsalarni istemol qilish, chekish.

**ANSWER: A**

2. Qadimgi odamlarda g‘ayri oddiy tabobat belgilari?

1. bosh suyagi trepanatsiyasi, shinalar qo‘yish, choclar qo‘yish, qon chiqarish, og‘riq qoldirish uchun tabiy vositalardan foydalanish.
2. bug‘li xammom, massaj, ichakni yuvish, sovuq va issiq kompresslar xazm trakti kasalliklarida evkalipt, kastor yog‘i va orxideya
3. piyozchasidan foydalanish, peshob bilan yuvish, balchiq surkash

4. marosimlar, taqinchoqlar, nordon yoki yoqimsiz vositalarni qabul qilish, chekish

ANSWER: A

3. Farmatsiya sohasida yozilgan maxsus asarlar nechanchi asrlarda paydo bo‘la boshladi?
- A. XV-XVI
  - B. X-XI
  - C. XIII-XIV
  - D. XVIII-XIX

ANSWER: A

4. Farmatsiya manbalarini ko‘rsating?
- A. arxeologiya, paleopatologiya, paleobiologiya
  - B. arxeologiya, paleobiologiya, paleozoologiya
  - C. arxeobiologiya, animizm, paleobiologiya
  - D. fetishizm, arxeologiya. Paleobiologiya

ANSWER: A

5. Asosida diniy-falsafiy tibbiyat tamoyillarini mujassam qilgan tibbiyotning vositalari va usullarining majmui bu?
- A. xalq tibbiyoti
  - B. klinik tibbiyat
  - C. ilmiy tibbiyat
  - D. an'anaviy tibbiyat

ANSWER: A

6. "Avesto"da berilgan tibbiyotga oid ma'lumotlarni ko‘rsating:
- A. tashrix va mijoz fiziologiyasi
  - B. puls diagnostikasi
  - C. plastik operasiyalar
  - D. Laparatomiya

ANSWER: A

2. "Avesto"da berilgan tibbiyotga oid ma'lumotlarni ko‘rsating?

- A. bemorlikning oldini olish va davolash yo‘llari
- B. puls diagnostikasi
- C. Emlash
- D. Laparatomiya

ANSWER: A

3. "Avesto"da berilgan tibbiyotga oid ma'lumotlarni ko‘rsating?

- A. kasalliklar haqida ma'lumotlar
- B. plastik operasiyalar
- C. emlash
- D. Laparatomiya

ANSWER: A

4. Avesto da davolashning qanday usullari to‘g‘risida yoziladi?

- A. parvez, duo, o‘simliklardan foydalanish
- B. jarrohlik qurbanlik qilish
- C. jismoniy tarbiya,
- D. parvezafsungarlik,parvez

ANSWER: A

5. Markaziy Osiyo xalqlarining ilk yozma manbasi:

- A. Avesto
- B. Mahobhorat
- C. Vedalar
- D. Hadislari

ANSWER: A

6. Avesto so‘zining ma’nosi nima:

- A. qat’iy qonunlar
- B. sahifa
- C. matn
- D. baxt-saodat kaliti

ANSWER: A

7. Avestoning qismlarini tiklagan olim:

- A. Dyuperron
- B. Kursiy Ruf
- C. Arrian
- D. Meri Boys

ANSWER: A

## **Nazarot savollar**

1. Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chikishi hakidagi ilmiy materialistik nazariyaga tushuncha bering.
2. Farmatsiya tarixini o‘rganishdagi nazariyalar va ularni ahamiyati.
3. Materiarxat va Patriarxat davridagi tibbiyot.
4. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi davolash usullari.
5. Ibtidoiy jamoa tuzumi davri tibbiyotiga oid jadvallar.
6. Ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid ko‘rgazmali plakatlar.
7. O‘zbekiston hududida qadim zamonlarda tibbiyoti
8. Avestoda tibbiyot
9. Ilk o‘rta asrlarda tibbiyoti.

**SLAYD**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**MAVZU:IBTIOIY JAMOA TUZUMI VA  
ILK DAVLATCHILIK DAVRI TARIXIDA  
FARMATSEVTIKA**

**TOSHKENT**

## **REJA:**

1. FARMATSEVTIKA TARIXINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI
2. INSONIYAT JAMIYATIDA FARMATSEVTIKANING KELIB CHIQISHI
3. AVESTODA TIBBIYOT

- FARMATSIYANING RIVOJLANISHIDA TABIIY FANLAR HAM MUHIM ROL O'YNAYDI. TABIIY FANLARNING HAR BIRI TIBBIYOTNI BOYITIB, RIVOJLANTIRIB BORADI. FARMATSIYANING RIVOJLANISHI IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTNING DEYARLI BARCHA SOHALARI RIVOJLANISHI BILAN BOG'LIQ. FARMATSIYA TARIXINI IJTIMOIY HAYOTNING BARCHA SOHALARI RIVOJLANISHI BILAN BOG'LIQ RAVISHDA O'RGANGAN HOLDA, UNING BOSIB O'TGAN BARCHA BOSQICHLARI BILAN TANISHILADI.



- FARMATSIYANING RIVOJLANISHIDA TABIIY FANLAR HAM MUHIM ROL O'YNAYDI. TABIIY FANLARNING HAR BIRI TIBBIYOTNI BOYITIB, RIVOJLANTIRIB BORADI. FARMATSIYANING RIVOJLANISHI IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTNING DEYARLI BARCHA SOHALARI RIVOJLANISHI BILAN BOG'LIQ. FARMATSIYA TARIXINI IJTIMOIY HAYOTNING BARCHA SOHALARI RIVOJLANISHI BILAN BOG'LIQ RAVISHDA O'RGANGAN HOLDA, UNING BOSIB O'TGAN BARCHA BOSQICHLARI BILAN TANISHILADI.




## FARMATSIYA TARIXINING **MANBALARI**



## FARMATSIYA TARIXINING MANBALARI


ARXELOGIYA FANI QATOR TARMOQLARGA BO'LINADI:  
**ANTROPOLOGIYA** – BU FAN QADIMGI INSONLARNING  
GAVDA TUZILISHI, UNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI,  
YASHASH SHAROITLARINI O'RGANADI.



PALEOPATOLOGIYA – BU FAN  
QADIMGI INSONLARNING  
SUYAKLARINI TEKSHIRIB,  
ULARNING QANDAY  
KASALLIKLAR BILAN  
OG'RIGANLIKLERINI  
ANIQLAYDI. BUNDA  
RENTGENOLOGIK VA  
RADIOLOGIK USULLARDAN  
FOYDALANILADI.



**PALEOBIOLOGIYA – BU FAN**  
**QADIMGI ZAMON**  
**INSONLARINING SUYAKLARINI**  
**RADIOBIOLOGIK VA**  
**IMMUNOLOGIK USULLAR BILAN**  
**TEKSHIRIB, UALAR**  
**ORGANIZMIDAGI BIOLOGIK**  
**XUSUSIYATLARNI ANIQLAYDI.**



*Anurognathus ammoni*  
Döderlein, 1923

## **INSONIYAT JAMIYATIDA FARMATSIYANING KELIB CHIQISHI HAQIDA 2 XIL NAZARIYA MAVJUD:**

- 1. Diniy – mistik nazariya.**
- 2. Ilmiy materialistik nazariya.**






• **DINIY – MISTIK NAZARIYA** TARAFDORLARINING FIKRICA, TIBBIYOT DASTLAB IBODATXONALarda PAYDO BO'LGAN. DAVOLASH ISHLARI BILAN BIRINCHI BO'LIP KOHINLAR (RUHONIYLAR) VA ROHIBLAR (MONAXLAR) SHUG'ULLANGANLAR. Ular INSONNING HAR XIL KASALLIKLARDAN AZOB CHEKAYOTGANINI KO'RIB, ULARGA RAHMLARI KELGAN VA RAHM-SHAVKAT YUZASIDAN BEMORLARNI DAVOLAY BOSHLAGANLAR. IBTIDOY JAMOA DAVRIDA YASHAGAN ODAMSIMON MAHLUKLAR TURLI KASALLIKLAR BILAN KASALLANGANLAR VA O'ZIGA XOS USULLAR BILAN DAVOLANGANLAR.

12

- ILMIY MATERIALISTIK NAZARIYAGA ASOSAN TIBBIYOT INSONIYAT JAMIYATI RIVOJLANASHINING DASTLABKI BOSQICHIDA ZARURAT TUFAYLI, YASHASH UCHUN KURASH JARAYONIDA KELIB CHIQQAN. MAZKUR NAZARIYA KO'L BILAN USHLAB, KO'Z BILAN KO'RIB ILMIY ASOSLANGAN NAZARIYA HISOBLANADI. MASALAN, DIFTERIYA KASALLIGINING KO'ZG'ATUVCHISI DIFTERIYA TAYOKCHALARI, DIZENTERIYA KO'ZG'ATUVCHILARI SHIGELLA YOKI FLEKSNERLARDIR.



13

**KASALLIKLARNING  
SABABLARI TO'G'RISIDA  
INSONLARNING DASTLABKI  
TUSHUNCHALARI**

FETISHIZM – INSONLAR  
TABIAT VA UNING TARKIBIY  
QISMLARINI USTUN  
QO'YISH. INSONLAR  
TABIAT VA UNING TARKIBIY  
QISMLARI TURLI  
KASALLIKLARNI KELTIRIB  
CHIQARUVCHI QANDAYDIR  
ILOHIY KUCHGA EGA DEB  
HISOBLAGANLAR.



23

**KASALLIKLARNING SABABLARI  
TO'G'RISIDA INSONLARNING  
DASTLABKI TUSHUNCHALARI**


ANIMIZM – INSONLARNING HODISALARINI  
ILOHIYLASHTIRISHI (LOT. ANIMA – RUH), OLAM  
TURLI FALOKATLAR VA KASALLIKLARGA  
SABAB BO'LUVCHI RUHLAR MAVJUD DEGAN  
FIKRDA BO'LGANLAR.



24

## **KASALLIKLARNING SABABLARI** **TO'G'RISIDA INSONLARNING** **DASTLABKI TUSHUNCHALARI**

**TOTEMIZM – HAR BIR QABILA «TOTEMA» DEB NOMLANUVCHI QANDAYDIR HAYVONDAN KELIB CHIQIB, INSONLAR MAZKUR «TOTEMA»GA NISBATAN QANDAYDIR HURMATSIZLIKDA BO'LALAR, U INSONLARNI KASALLIK BILAN JAZOLAYDI.**



## **AMALIY JIHATDAN AVESTODA UCH XIL DAVOLASH USULI KO'RSATILGAN**

- Bular - pichoq bilan davolash ya'ni jarrohlik, o'simliklar (terapevtik) bilan davolash va so'z (avrash ) usuli bilan davolash

- Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan oxirgi usulni psixoterapiya deb atash mumkin. «Avesto» da tabib bo'lish uchun qat'iy talablar qo'yilgan, ya'ni tabib bo'lish uchun o'zining tabiblik qobiliyatini ko'rsatib 3 ta bemorni davolashi kerak.

## TARIX GUVOH

tibbiyot faniga eng ko'p hissa qo'shgan musulmon olimlardir. Islom tibbiyotini o'rgangan kishi beixtiyor undan oldin ham tibbiyot bo'lganmikan, deb o'ylashi mumkin.

Islom tibbiyoti nafaqat davolash, balki kasallikning oldini olish, bemorga qulay sharoit yaratish, bemor va tabibning xulqini tuzatish kabi ishlarda ham boshqalardan o'zib, yuksak cho'qqilarni zabit etgan.

Islomning tibbiyotga qo'shgan hissasi bu sohani o'zgartirgan buyuk siymolarda o'z aksini topadi. Bu zotlar Allohnинг fazlu marhamati bilan fanga yangi uslublar olib kirkani sabab ham insoniyat bugungacha ulardan foydalaniib kelmoqda

AVESTODA BIRINCHI GALDA JISMONIY VA RUHIY OZODALIK MASALASI HAQIDA SO'Z BORADI.  
HAR XIL ZARARLANGAN NARSALAR DAN UZOQ BO'LISHI KERAKLIGI TAVSIYA ETILADI. ENG  
KUCHLI ZARARLANGAN NARSA DEB, O'LGAN ODAMNING TANASI KO'RSATILGAN. SHUNING  
UCHUN O'LGAN KISHI TANASIGA YAQINLASHMASLIK TAVSIYA ETILGAN. AFTIDAN, O'SHA  
ZAMONDA HAM MURDA ZAHARI HAQIDA TUSHUNCHA BO'LGAN.

